



YOSHLARNI TARBIYALASHDA “VATANPARVARLIK RUHI” NING O’RNI VA AHAMIYATI (ILMIY-AMALIY MAQOLA)

Rustamov Yusuf Erkinovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Saf qismi kurs boshlig‘i mayor

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarni tarbiyalash jarayonida “vatanparvarlik ruhi” ning o‘rni, ahamiyati, tarixiy ildizlari, sovet ittifoqi va qonli to‘qnashuvlardagi vatanparvarlik ruhining o‘rni, xulosalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, “vatanparvarlik ruhi” ning bugungi kundagi ahamiyati haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Vatanparvarlik ruhi”, buyuk mutafakkir va adiblar asarlari, birinchi prezident I.A. Karimov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jamoat Xavfsziligi konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, ilmiy tadqiqotlar, qo‘yilgan vazifa va topshiriqlar, Xulosa.*

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash o‘zining tarixiy ildizlariga ega. Shiroq, To‘maris, Spitamen, Dalvarzintepa afsonalari, Go‘ro‘g‘li, Alpomish dostonlarida, Vatan uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lish, jasorat, matonat, vatanga sadokat tuyg‘ulari ulug‘langan. Sharq, mutafakkirlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy) ijodlarida ham vatanparvarlik g‘oyasi alohida tarannum etilgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy inson kamolotini vatanparvarlik bilan bog‘laydi va «Ollox in‘om etgan aql ne‘matidan mavjud imkoniyat darajasida foydalanmasdan turib, yetuk inson martabasiga erishib bo‘lmaydi, chunki inson dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakunidir» deb e‘tirof etadi.[1] Madomiki shunday ekan, haqiqiy vatanparvarlik faqat yetuk insongagina xos bo‘lishi mumkin. Abu Rayhon Beruniy «Insonning tashki qiyofasi tabiat inomidir, uni o‘zgartirishning imkoniyati yo‘q. Biroq axloqiy qiyofasini o‘zgartirish insonning o‘z qo‘lida. Demak, uni yomon xulkdan yaxshi fazilatlar tomon aylantirish imkoniyatlari cheksiz» deb ta‘kidlaydi. Muallif fikricha, uning ijodidagi axloqiy kiyofaning birinchi me‘zoni vatanparvarlikdir. Chunki vatan tuyg‘usini his qilgan insongina ma‘naviy kamolotga erishishi mumkin. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zga yurtda vatan tuyg‘usini uning asarlarida ifodalangan. His chuqur qilgani Mustabid tuzum davrida yoshlarni vatanparvarlik, baynalminallik, xalqlar do‘stligi va vatanni himoya qilishning kommunistik g‘oyalari ruhida tarbiyalash mazmuni, metodi hamda vositalari tahlil etilgan. Hozirgi davrda harbiy vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish vazifalari, usullari, vositalari va milliy g‘oyaning yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o‘rni masalasiga alohida e‘tibor karatila boshladi. Mustaqillik yillarida yoshlar tarbiyasi, Inson ma‘naviy kamoloti masalalari harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, milliy xavfsizlik muammolari bilan aloqadorlikda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov asarlarida atroflicha yoritilganini ta‘kidlab o‘tish lozim. Jumladan, B.E. Ergashev va B.M. Ne‘matovlar o‘z tadqiqotlarida



harbiy xizmatchilar orasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning ma'naviy-axloqiy va harbiy tarbiyaning muhim jihatlari, hamda uni takomillashtirish yo'llari haqida fikr yuritadilar. [2] Lekin olimlarning talkikotlarida, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni va roli tahlil etilmagan. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, vatanparvarlik tarbiyasi falsafiy axloqiy g'oyalarning asosi bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari asosida qator tadqiqotlarda alohida o'rganilgan, biroq yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni masalasi alohida yoritilmagan.

Harbiy vatanparvarlik tushunchasini yanada chuqurroq tahlil etishda, mifologik asarlarni o'rganib chiqmasdan kerakli natijaga erishish mumkin emas. Negaki, tarixiy taraqqiyotning uzoq davrlaridan boshlab, turli avlodlarning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari hamda tasavvurlari bu asarlarda o'z ifodasini topgan. Harbiy vatanparvarlik tushunchasini yanada chukurroq tahlil etishda, mifologik asarlarni o'rganib chiqmasdan kerakli natijaga erishish mumkin emas. Negaki, tarixiy taraqqiyotning uzoq davrlaridan boshlab, turli avlodlarning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari hamda tasavvurlari bu asarlarda o'z ifodasini topgan. Biz ba'zi olimlarning vatanparvarlik tarbiyasiga turli munosabatini tahlil qilar ekanmiz, bu masalaning hali yetarli o'rganilmaganligini anikladik. Shunga ko'ra, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirishda ular dunyoqarashini tubdan o'zgartirish, istiqloq sharoitida sobiq ittifoqdan qolgan asoratlarni yo'kotish uchun uning ilmiy va amaliy jihatdan yoshlar ongida muhim ahamiyat kasb etishini uqtirib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 29-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-27-son farmoyishini zamonaviy vatanparvarlik tarbiyasi borasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning asosini tashkil qiladi deyish mumkin. Negaki, Farmoyishning 1-ilovasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi" ham qabul qilingan bo'lib, konsepsiyaning 1-bobi 3-bandida Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarining 9-yo'nalishi ham aynan mavzu qamrovini o'z ichiga oladi. "...voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish...".[3] Ushbu farmoyishga binoan IIV Akademiyasida va Jamoat Xavfsizligi Universitetlarida "Jamoat xavfsizligi asoslari" o'quv fani, milliy tadqiqotlar bazasi joriy etildi.[3¹] Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, kursantlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda vatanga va xalqqa bo'lgan sadoqat va muhabbatni yuksaltirish uchun "Vatanparvarlik tarbiyasi" o'quv fani sifatida o'zlashtirilib kelinmoqda. Konstitutsiyamiz moddalarini chuqur tahlil qilish va ularni yetkazib bera olish ham vatanparvarlikka bir debocha bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. (*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi - O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir*



fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.)(4]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023-yil 29-iyundagi "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 267-son qarori asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.[5] Qarorning 1-ilovasiga muvofiq "2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish KONSEPSIYASI" "Vatan — ulug', burch — muqaddas!" g'oyasi asosida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni mazmunan yangi bosqichga ko'tarishda muhim rol o'ynaydi. [6] Ushbu Konsepsiya kelgusida harbiy xizmat nufuzi hamda milliy Qurolli Kuchlarimiz bilan faxrlanish va ularning salohiyatiga ishonch hissini shakllantirish, yoshlarning harbiy kasbni tanlashga bo'lgan qiziqishini oshirish imkonini beradi, yoshlarda ijtimoiy ahamiyatga ega fuqarolik tuyg'usini shakllantirish, yetuklik, Vatanga muhabbat va burch, milliy an'analarga sodiqlik, tarixiy va madaniy qadriyatlarni saqlashga intilish kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, har tomonlama rivojlangan, sodiq, vatanparvar, odil, mard va jasur yoshlarning tayyorlanishi ta'minlanadi, yoshlarda radikal g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitet shakllanadi va mustahkamlanadi, ma'naviy-axloqiy muhit va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash negizida mustahkam oila qurish fazilatlari rivojlanishiga beixtiyor hissa qo'shishi shubhasiz. [7]

Bugungi kunda prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning qator nutqlarida ham harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tushunchasining mohiyati va mazmunini ochib berishga, yoshlar o'rtasida uni keng targ'ib qilishga, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va yoshlar o'rtasida harbiy vatanparvarlik tarbiyasining zaruriyatini asoslashga, mustaqil O'zbekiston Respublikasidagi harbiy islohotlarning milliy g'oya bilan mushtarakligini tahlil qilishga, mustaqillik davridagi harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy, siyosiy, xukukiy, ma'naviy asoslarini o'rganish va yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos jihatlarni anglab yetishga, xususiyatlarini harbiy vatanparvarlik tarbiyasida milliy g'oyaning rolini belgilashga, harbiy vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish vositalari, usullari, yo'nalishlarini aniklashga jon-jahdi bilan kirishish lozimligini ta'kidlagan. Negaki, harbiy vatanparvarligi yo'q bo'lgan xalqning, millatning va uning yoshlari bir kun jarlikka tomon ildam borishi, shubhasiz.

O'zbekiston Kurolli Kuchlari uchun kadrlar tayyorlash, shaxsiy tarkibni kamol toptirish, ularda Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otish, o'zligini anglash, umumbashariy qadriyatlar, harbiy an'analarni ruhida tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormokda. Buning uchun esa, eng avvalo, shaxsiy tarkibning bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy, hukukiy va ma'naviy, moddiy, ehtiyojlarini o'rganish va shu asosda bugungi mafkuraviy tajovuzlarga qarshi goyaviy tarbiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmokda. Bu holat harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasi va amaliyotiga yangicha yondashuvni talab kilali. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy tarbiya qomusidir. Uning deyarli har bir moddasida tarbiya muammolariga aloqador masalalar o'z ifodasini topgan. Tarbiyaning



qaysi sohasi bo'lmashining tarixi, ota- bobolarimizning tajribasi, ularning bu boradagi pandnoma va o'g'itlarini o'rganish bugungi tarbiyachi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Madomiki, "Tarbiyachi ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand kilish, hakikiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak".[8] Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asosiy diqqat e'tiborni ajdodlarimizning tarbiya borasidagi ma'naviy merosini o'rganish va undan umumiy xulosalar chikarib, mustakillik ma'naviyati talab kilayotgan ma'naviy-axloqiy, madaniy ma'rifiy yo'nalishda ish olib borishga karatmoqda. Zero, ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasi, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan xazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan muhosasiz isyon bo'lishi uchun turli-tuman chora-tadbirlarni xam belgilab berganlar. Tarbiya serqirra va ko'p yo'nalishli jarayon. Bu jarayonning tarkibiy qismlari va yo'nalishlari o'zaro genetik bog'liq xolda bir-birini to'ldiradi. Bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tushunchasining mazmuni, umuman tarbiya bilan aloqasi, munosabati va istiqbollarini o'rganish zarur. Muhimi, bu masalaning nazariy jihati emas, balki amaliy ahamiyatini aniklashdan iborat. Shuni alohida ta'kidlashish joizki, sho'rolar davrida harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga yetarli e'tibor berilmagan. Chunki hayotning boshqa sohalari singari harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ham mafkuralashtirilgan, ya'ni faqat kommunistik tarbiya haqida gapirilgan. Ba'zi mualliflar harbiy vatanparvarlik tarbiyasini axloqiy, boshqalari g'oyaviy-siyosiy tarbiyaga bog'lasalar, uchinchi bir guruh tadqiqotchilar esa goh birinchi, goh ikkinchi nuqtai nazarda turadilar". Ba'zi mualliflar harbiy vatanparvarlik tarbiyasini mafkuraviy faoliyatga aloqador, deb hisoblab, uning mazmunidan harbiy, texnik, jismoniy tayyorgarlikni chiqarib tashlaydilar. Ular harbiy vatanparvarlik tarbiyasining fakat bir kismi bu jarayonla vatanparvarlikni shakllantirishni tadqiq etadilar. Chunonchi, vatanparvarlikning shakllanishi vatan himoyasiga tayyorgarlik bilan uyg'unlikda borishi kerak. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining kengligi va ko'p qirraliligi uni tarbiyaning mustaqil yo'nalishi sifatida ajratishni talab qiladi.

Yoshlarning Vatan himoyasiga tayyorgarligida jismoniy chinikish asosiy shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Armiya va xalqning birligi, fuqarolar, xususan, yoshlarda Qurolli Kuchlarga muhabbat hislarini shakllantirish ham "harbiy vatanparvarlik tarbiyasi" tushunchasida o'z ifodasini topadi. Sobiq ittifoq davrida yaratilgan adabiyotlarda "harbiy vatanparvarlik tarbiyasi" tushunchasiga oid ko'pgina fikr- mulohazalar ilgari surilgan. Shuni aytish kerakki, barcha ilmiy ishlarda o'sha davrda hukmron bo'lgan siyosatning ta'siri sezilib turadi. Chunki sobiq sovet kishilari ongida mavhum Vatanga bo'lgan muhabbat hislarini shakllantirishga harakat qilingan. Bu masalaga V.S.Vasyutin shunday yonlashgan: "Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi marksizm leninizm tamoyillariga asoslangan, armiya va xalqning birligini mustaxkamlash, sovet kishilarida vatanparvarlik internatsionalistik sifatlarni shakllantirish, ular tomonidan Vatan himoyasidek muqaddas burchni bajarish uchun



zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan tizimli tarbiyaviy va tashkilotchilik ishini o'zida aks ettiradi".[9] V.S. Vasyutinning harbiy vatanparvarlik mohiyati haqidagi mulohazasi o'sha davr mafkurasi ta'sirida ekanidan dalolat beradi. Birok u mafkura ta'siridan tozalansa, bu ta'rif masalaga o'ziga xos ijodiy yondashuvni ifodalashi mumkin.

Respublikamizda mustaqillikka erishilgandan so'ng ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida bo'lgani singari harbiy sohada ham islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada xolisona ilmiy-tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyatlar. yuzaga kelayotganligini ta'kidlab o'tish joiz. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi davlat organlari, jamoat birlashmalari tashkilotlarining yoshlarda Yuksak vatanparvarlik ongi, o'z vataniga sodiqlik hissi, fukarolik burchini bajarishga, uning manfaatlarini ximoya kilishga tayyorgarlikni shakllantirish bo'yicha rejali, tizimli maqsadga yo'naltirilgan na uyg'unlashgan faoliyatidir. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasida oila, bogcha, maktab, o'rta maxsus bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlari, podavlat gashkilotlari, mahalla, faxriylar kengashi va jamg'armalari va boshqa ijtimoiy institutlar ishtirok etadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi fukarolar ongiga qisqa vaqtda ta'sir ko'rsatmaydi, balki shaxs kamoloti bilan birga shakllanadi. Bu jarayon aholining barcha yosh guruhlarini qamrab oladi. Unda turli ijtimoiy va siyosiy institutlar ishtirok etadi. Zero, vatan himoyasiga doimiy tayyorgarlik turmush tarzi, fuqarolarni tarbiyalash tizimi orkali shakllanadi.

Insoniyat XXI asrni terrorizm, millatlararo nizolar, giyohvandlik xuruji, ma'naviy qashshshoqlik, ekologik xavf kabi global muammolar bilan kutib oldi. Dunyoda axborot okimining tezlashuvi va axborot texnologiyalaridan keng qamrovli foydalanilishi insoniyat ongiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Darxaqiqat, bugungi kunda XXI asr boshi g'oyaviy kurashning avj olgan davri deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "...ko'p sinovlar, azobu uqubatlar, xatolar, fojialar, qatag'onlarini boshidan kechirgan, asrimiz poyoniga yetayotgan, insoniyat yangi asr bo'sag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasida fikr talashuvlarga goxo bahs-munozara doirasidan chikib, qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda",-deb ta'kidlaydi. [10] Ayniqsa, Afg'oniston, Tojikiston, Rossiya, AQShning Vashington va Nyu-York shaxarlarida, Yugoslaviya, Pokiston, Xindistondagi terroristik xarakterli shular jumlasidandir. Bu esa o'z istiqloq va taraqqiyot yo'lini belgilab olgan O'zbekistonga ham ta'sirini ko'rsatmoqda. Mamlakat rahbari I.A.Karimov aytganidek, "Hozirgi davrda hech qaysi mamlakat, jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham boshqalardan ajralgan hudud emas. Bu mamlakat jahon xalqlarining muayyan jug'rofiy va siyosiy tizimlari tarkibiga kiradi. Mustaqillikni mustahkamlash, ona Vatanimizni himoya qilish, yosh avlodning baxtli kelajagini yaratish ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni qurish mukaddas vatanparvarlik burchimiz va vazifamizdir". [11] O'zbekistonda kechayotgan siyosiy jarayonlarning ko'lami kengligi sababli uning eng muhim yo'nalishlari bilan bog'lik



quyidagi muammolarga e'tiborni qaratish zarur. Milliy g'oya va mafkura o'z mazmun mohiyatiga ko'ra respublikaning ijtimoiy siyosiy taraqqiyotiga xizmat kiladi, ya'ni siyosiy partiyalar. ijtimoiy harakatlar, jamg'armalar, eng asosiysi, xalqimizning barcha katamlari, shu jumladan, harbiy xizmatchilarning ham umumiy manfaatlarini ifodalaydi. Bu manfaatlar, birinchidan, yurtimiz hududiy yaxlitligi va mustaqilligining saqlanishi, chegaralarining butunligi va daxlsizligi; ikkinchidan, yurtning tinchligi va osoyishtaligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, ekologik, axborotlar va g'oyaviy tahdidlardan muxofazalanganligi; uchinchidan, fuqarolar va millatlararo totuvlik ijtimoiy barqarorlik muhitini yaratish, to'rtinchidan, har bir oila va bugun xalqning farovonligini ta'minlash: beshinchidan, jamiyatda adolat ustivorligi, demokratiya, o'z-o'zini boshqarish tamoyillariga amal qilinishini ta'minlashdan iboratdir. Bu manfaatlar va yo'nalishlar jamiyatdagi barcha millatlar va elatlarning, shu jumladan, harbiy xizmatchilarning ham hamjihatlikda ishtirok etishi, mehnat qilishi va intilishi bilan bog'liq. Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari, ilmiy va badiiy asarlar, san'at ham katta rol o'ynaydi. Binobarin vatanparvarlik tarbiyasi komil inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan barcha tadbirlarning bosh maqsadidir.

Jamiyatdagi tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ijtimoiy asosini tashkil etadi. Mustaqillik uchun mamlakat ravnaki yo'lidagi kurash jarayonida xalqimizning o'ziga xos an'analari shakllangan. Bu boradagi an'analarni uzoq va yaqin o'tmishda Vatan va millat manfaatlarini yo'lida fidoyilik ko'rsatgan xalq qahramonlarining faoliyatlari, O'zbekistonning mustakil tarakkiyot yo'lidagi yutuqlari misolida ochib berish maqsadga muvofikdir. Iqtisodiy siyosiy tizimning rivoji bilan birgalikda yoshlarning Yangi ma'naviy qiyofasi ham shakllanmokda. Shaxs ma'naviy olamining yangilanishi milliy g'oya va mafkura ta'sirida sodir bo'lmokda. Milliy mafkura xalkning Vatan himoyasiga tayyorgarligining goyaviy-nazariy asosi bo'lib, Vatan va vatanparvarlikka nisbatan boshlang'ich e'tiqodlarni shakllantiradi. Bu esa harbiy esa harbiy vatanparvarlik tarbiyasining zaruriy mezonidir. Bizning fikrimizcha, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ob'ektiv omillari harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uchun zaruriy shart sharoitlarni yaratsa da, ular to'la to'kis kugilgan natijalarga olib kelmaydi. Shu ma'noda sub'ektiv omillar davlat organlari, jamoat tashkilotlari, boshqa ijtimoiy institutlarning maqsadga qaratilgan faoliyati, hamda shaxsning ichki kechinmalari muxim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, bugungi kunda fukarolar, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda sub'ektiv omilning roli ortib bormokda. Harbiylar hayoti juda murakkab, ba'zan ko'chib yurishni talab kiladi. O'zbeklar esa o'zlari o'sib voyaga yetgan joylariga ko'proq bog'langan. Shuning uchun harbiy siyosatni yurgizishda ushbu holatni hisobga olish kerak bo'lmoqda. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda urush faxriylarining o'ziga xos o'rni bor. Ularning tajribalari, saboklaridan ibrat olish, kelajak avlodga yetkazish masalasi ular safining kamayib borayotganligi munosabati bilan dolzarb bo'lib qolmokda. Armiya va urush faxriylari chuqur hurmat va ehtiromga



sazovor kishilardir. Chunki ular insoniyatni fashizm balosidan ozod qilish ishiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ularning hayotiy tajribalaridan armiya faoliyatining rolini oshirishda, mamlakatimiz iqtisodiy va mudofaa qudratini mustahkamlashga, yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida foydalanish muhim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. [12] Harbiy vatanparvarlik bu juda keng tushuncha. Uni anglab yetmoq va unga amal qilmoq inson shaxsiyatidan kuchli mas'uliyat va bosimni talab qiladi. Farzandlarimizni va yetilib chiqayotgan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun, avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, litsey va kollejlarda hamda oliy ta'lim muassasalarida salmoqli ishlarni olib borilib, ular uchun bu sohada amaliy o'quv mashg'ulotlari, stendlar, quizlar, loyihalar, ma'ruza mashg'ulotlari va boshqa usullardan samarali foydalanmoq zarur. Baralla aytilish joizki, bugun uchinchi renessans ostonasida turgan ozod va obod yurtimizning har bir yoshlari vatanparvarlik tarbiyasi asosida yetishib chiqmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Farobiy – “Fozil odamlar shahri”.
2. <https://natlib.uz> – O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron adabiyotlar va tadqiqotlar sayti.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-27-son farmoyishining 1-ilovasi “O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” ning 1-bobi 3-bandi. 3¹. “2022 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish STRATEGIYASI” ning 4-bob 41-bandi.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 267-son qarori.
6. “2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish KONSEPSIYASI” ning 7-bob 22-band 1-xatboshisi.
7. “2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish KONSEPSIYASI” ning 7-bob 22-band 2-xatboshisi.
8. I.A. Karimov – “Buyuk kelajagimizning haqiqiy kafolati” - Toshkent, “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1993, 27-28-betlar.
9. <https://natlib.uz> – O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron adabiyotlar va tadqiqotlar sayti – Pedagogika bo'limi.



10. I.A. Karimov - O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari T., "O'zbekiston", 1997.
11. I.A. Karimov - Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., "O'zbekiston", 2000.
12. "2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish KONSEPSIYASI" ning 3-bob 7-bandi.